



QO'SHIQLAR UCHADI TOG'LARDAN OSHIB ...

Mamarasulova Hilola To'ychiyevna

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Yunusova Elnura

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod
maktabi o'quvchisi*

Saksoninchi yillar o'zbek she'riyatida ro'y bergan o'zgarishlar, xususan, ijtimoiy mavzuning ustuvor ko'rinish olishi poetik tafakkurning bosqichma-bosqich yangilanishi barobarida voqe bo'ldi. Bu holatlar shoir Shavkat Rahmon ijodida yanada yorqinroq ko'rinadi. She'riyatda mavzu, ohang va so'zning bir-biri bilan uyg'un in'ikosi badiiy mukammallikni ta'minlaydi. Shunday ekan, har bir ijodkorning bu boradagi mahoratini tadqiq etish, nafaqat bir ijodkor, balki ma'lum bir davr she'riyatini yaqindan o'rganish imkonini beradi. Biz bu o'rinda 80-yillar she'riyatida badiiy obraz, aniqrog'i, poetik so'zning ma'no qirralarini mavzu ko'lamida yangilanish jarayonini shoir Shavkat Rahmon she'rlari misolida qarab chiqmoqchimiz.

Poetik matn tarkibidagi har bir so'z muayyan badiiy ma'noga ega. Adabiyotdagi boshqa janrlarga nisbatan so'zning poetik ma'no olishi she'riy asarda to'laqonli amalga oshadi. Ayni paytda, butun she'riyatga tegishli an'anaviy poetik so'zlar guruhini ajratib ko'rsatish mumkin. Lekin bu an'anaviylik muayyan shoir ijodida individual mazmun kasb etadi. Ayni vaqtda u yoki bu ijodkorning ma'lum bir poetik obrazni nisbatan faol qo'llashi oydinlashadi. Bu o'rinda takrorlar kelmaydi. Ijodkorning individual mahorati so'zning ma'no qatlamlarini yangidan ocha borishida ko'rinadi. Tildagi har bir so'zning cheklanmagan darajada poetik imkoniyati mavjud. Faqat bu yashirin



imkoniyatni ijodkor talanti, mahorati yuzaga chiqaradi. Turli avlodga mansub shoirlar she'riyati o'zaro taqqoslansa, har bir davrga xos faol poetik so'z, obrazli ifodalarni uchratamiz. Shavkat Rahmon she'rlarida bu xil poetik obrazlar ancha. Ularning aksariyati shoir ijodida an'anaviylik kasb etgan. Misol uchun, quyosh, yulduz, oy, tog', tosh, daryo, yo'l, bulut, daraxt, shamol, shabboda, sukunat, kapalak, yurak, ko'z, ko'ngil, so'z kabi obrazlarni keltirish mumkin. Sanab o'tilgan obrazlarning ko'pchiligi boshqa davr she'riyatida, xususan, mumtoz adabiyotda ham qo'llaniladi. Shavkat Rahmon she'rlarida bu obrazlar mavzu va ohangga mos ravishda o'z ma'no qamrovini kengaytirgan. Shoir so'zni qayta kashf etib yangilagan. Albatta, an'anaviy obraz zamiridagi ma'nolar qatlamlari butkul yo'qolib ketmaydi, ularning qatida ma'nolar tadriji saqlanadi. Shavkat Rahmon she'riyatida an'anaviy poetik obrazlar ijtimoiy ma'no olganligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy mazmunli she'rlarni publitsistikaga yaqin baholaydilar. She'riyatning publitsistikaga moyilligi mavzu va g'oyaning ijtimoiylashuvi natijasida yuzaga keladi. She'ning ijtimoiy mavzuga tegishliligi uning qusuri emas. Aksincha, ijtimoiy asossiz asar muallaq qoladi. Muhimi, mavzuning qanday yoritilganida, asarning badiiy yuksak darajada, asl san'at mezonlariga uyg'un ifoda topishida. Yana bir jihat – ijtimoiylikning umuminsoniy muammolarga daxldorligida ko'rinadi. "Gang daryo bo'yida...", deb boshlanuvchi "Qo'shiq" she'rida publitsistik ruh ustuvor. Ushbu she'rlarining badiiylikka daxldorligini Shavkat Rahmon she'riyatiga xos an'anaviy – tog', tosh kabi obrazlarning matnda yangi poetik mazmun ifodalab kelishi ta'minlagan.

Mehr-u muhabbatga,
sog'inchga to'liq
qo'shiqlar uchadi tog'lardan oshib –
adashgan dunyoni chaqirar qizlar,
larzaga tushadi tog'larning toshi .



She'rdagi qo'shiqning tog'lardan oshib, toshlarni larzaga keltirishi shunchaki qayd emas. Tosh obraziga yuklangan poetik ma'no shoir ijodining boshqa namunalaridagi ayni obraz semantikasiga qiyos etilsa, yanada aniq ko'rinadi. Bu o'rinda "Yana savol", "Gullayotgan tosh" deb boshlanuvchi she'rlar alohida diqqatga sazovor. "Yana savol" she'riga diqqat qilaylik:

Oyog'imga
botmon toshlarni
bolalikdan bog'lab qo'ydi kim?
Endi xalos bo'lmoqqa yetmas
yovuzlardan asragan umrim.
Xudo bergan soniyalarni
xarob qildi qaysi g'alamis?
Agarda shu toshlar bo'lmasa,
Uchar edik samolarda biz .

Tosh – yuk, lirik qahramon – bolakaydan oyog'iga bu toshlarni kim bog'laganini hayron bo'lib so'raydi. Xudo bergan qimmatli soniyalarni qaysi g'alamis xarob qilganligini bilgisi keladi. Tosh obrazi orqali ifodalanayotgan poetik ma'no "agarda tosh bo'lmasa, "uchar edik samolarda biz" misrasi vositasida aniqlashadi.

Yuqorida keltirilgan "Qo'shiq" she'rida aytilgan, toshlarning larzaga kelishi bilan bog'liq tasvir zahirida lirik qahramonning og'ir yukdan forig' bo'lishi bayon qilinadi. Tosh – dard, hasrat, armon. Insonni toshdan faqat mehr, muhabbat forig' aylaydi. "Yo'lovchi" she'rida tosh obrazining ramziy ma'nosini shoir birmuncha ochiqroq bayon etgan:

O'ttiz uch yoshimda
o'ttiz uch ming yil
hasrati, dog'i bor qarashlarimda,



sangtarosh xo'rsinar qadimdan buyon
olam toshlarini taroshlar ekan...

Bu o'rinda tosh obrazining ko'hna hasrat, armonlarning dog'i ekanligi, san'at esa ushbu dardlarni kuylash barobarida ko'ngillarni yoritib, kishilarni ezgulik yo'liga chorlashi aniq aytilgan. Shavkat Rahmon to'plamlaridan birini "Gullayotgan tosh" deb nomlagan. Ushbu nomdagi she'r esa tosh obrazining ramziy ma'nosini yanada muayyanlashtirish barobarida shoir she'rlarining g'oyaviy mundarijasini an'anaviy tosh obrazi tevaragiga jamlaydi. "Gullayotgan tosh" she'rida Shavkat Rahmonning tosh obraziga yuklagan poetik ma'nosi yanada mukammallashib, teranlashib, tadrijiylikning o'ziga xos yuksak darajasiga yetganligini anglaymiz. Aslida tosh obrazi folklor va adabiyotda qadimdan kelayotgan an'anaviy obrazlardan biridir. Badiiy obraz tabiatini tadqiq etgan D.Rajabov tosh obrazining ushbu jihatlariga alohida e'tibor qaratib, adabiyotshunos I.Haqqulovning (tuproq singari tosh ham Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi ramziy obrazlardan). Tosh obrazning umumturk adabiyotiga kirib kelishi va ma'lum mavqega erishganligining o'ziga xos diniy-axloqiy, falsafiy mifologik asoslari bor", degan fikrlariga tayanib, Shavkat Rahmonning "Gullayotgan tosh" she'rini tahlil etgan. Tadqiqotchi (olim)D.Rajabov tosh obrazi xususida to'xtalib, "she'rning boshidan-oxirigacha birgina badiiy obraz gullash uchun qulay fursat kutayotgan tosh obrazi hukmronlik qiladi. Bu tosh Haqiqat. Bu tosh ulug' bobokalonimiz Temur haqidagi, Dukchi eshon haqidagi, asr boshidagi buyuk to'ntarish haqidagi, bizning "bosmachi" avlodlarimiz haqidagi badarg'a qilingan Haqiqat. Shuning uchun minglab kaltabinlar, bu haqiqatlarni "tun"ga, "tosh"ga aylantargan nokaslar gurzisini do'laytirib toshning gullamasligini istaydilar. Shuning uchun u shoirni o'tkir ko'zlariga tobora shubhaliday ko'rinadi, uni yanada qiziqtiradi. Bu tosh esa gullash mumkin bo'lgan asrni kutib yotibdi.



Balkim tosh hoziroq
gullayotgandir,
ming rangli jiloda yashnab, o'zgarib,
balki bu gullarni ko'rmayotgandir
hattoki shoirning o'tkir ko'zlari.

Saksoninchi yillarda bunday qora toshning siri – “gulli” jozibasi haqida gapirish oson emasdi. Lirik qahramon orzusida o'sha “gullayotgan tosh”ni ko'rish niyati ustun. Tosh bu o'rinda ramziylik kasb etadi”, deb yozgan. Har qanday she'r agar u chinakam san'atga daxldor bo'lsa, bir qancha talqinlarga imkon beradi. Chunki o'quvchi o'z ko'ngli, dunyoqarashi, tabiati va bilim tajribalaridan kelib chiqib she'rni qabul qiladi va sharhlaydi. “Gullayotgan tosh” ham xuddi shunday serqatlam mazmunga ega. D.Rajabov she'rdagi tosh ramzining ma'nosini haqiqat deb anglab, talqin etgan bo'lsa, uni xato deb aytish noo'rin. Lekin biz “gullayotgan tosh”ni shoirning boshqa she'rlaridagi tosh obrazi ifodalagan ma'nolar qamrovida olib so'ngra talqin etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki Shavkat Rahmon she'riyatidagi an'anaviy xarakter olgan poetik obrazlar o'ziga xos umumiy mazmunga ega va bu ma'nolar ko'lami she'rdan she'rga aniqlashib biri ikkinchisini to'ldirib keladi. Biz yuqorida to'xtalgan an'anaviy obrazlar unga zamondosh, davradosh shoirlar ijodida ham qo'llangan bo'lishiga qaramay, ular o'ziga xos tarzda poetik ma'nolar olganligini kuzatamiz. Ushbu misollar har bir ijodkorning so'zga, obrazga individual yondashib, o'z dunyoqarashi, intilishi, orzu-istaklarini ifodalashini bildiradi. Shoirning estetik olami, ideallari u yaratgan asarlarning mavzu mazmuni qatorida poetik ifoda shakllarida ham namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbek adiblari\ S.Mirvaliyev, R.Shokirova, – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot.–2016. – 436 b.



She'rlar. Sh. Rahmon.- T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016. – 48 b.

Shavkat Rahmon. Saylanma. — T.: Sharq, 1997. — 384 b.

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**

